

“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning o‘rni” mavzusida matbuot anjumani o‘tkaziladi

Davlatimiz Rahbari tomonidan qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalar ijrosi hamda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan bu borada olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida xalqimizni yaqindan tanishtirish maqsadida joriy yil 15-sentyabr kuni soat 15:00da AOKA binosida "Tilning oliy qadriyat sifatida shakllanishida “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning o‘rni” mavzusida matbuot anjumani o‘tkaziladi.

OAV vakillarini ushbu matbuot anjumanida ishtirok etishga taklif qilamiz!

O‘zR FA Axborot xizmati.